



ABU RAYHON BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLER” ASARI AHAMIYATI

Saparbayeva Aziza Asror qizi

Urganch davlat universiteti 3-bosqich talabasi

azizasaparbayeva13@gmail.com

+998931530320

Annotatsiya: Maqolada Abu Rayhon Beruniyning fundamental asarida jamiyatni qamrab olgan tarixiy, etnografik, lingvistik va boshqa jarayonlar tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируются исторические, этнографические, лингвистические и другие процессы, охватившие общество в фундаментальном труде Абу Райхана Беруни.

Abstract: The article analyzes the historical, ethnographic, linguistic and other processes that covered the society in the fundamental work of Abu Rayhan Beruni.

Kalit so‘zlar: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Xorazm, xronologiya, etnografiya, lingvistika, tarixiy dunyoqarash.

Ключевые слова: «Реликвии древних народов», Хорезм, хронология, этнография, языкознание, историческое мировоззрение.

Keywords: "Relics from ancient peoples", Khorezm, chronology, ethnography, linguistics, historical outlook.

Kirish. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” - asl nomi "Al osor al boqiya an alqurun alholiya") — xorazmlik yirik olim, mutaffakir Abu Rayhon Beruniyning yirik ensiklopedik asari. Ushbu asarni Abu Rahon Beruniy 27 yoshida Xorazmda yozib tugatgan¹. Asarda O‘rta Osiyo xalqlari, xorazmliklar, so‘gdiliklar, yahudiy, yunon va boshqalar xalqlarning yil hisoblari, hayitlari, mashhur kunlari, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotining tarixi, urf-odatlari, dunyoqarashlari hamda O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan.

Asarda Beruniy Xorazmning turkiy aholisi foydalangan yillarning turkiy nomlarini beradi (sichqon, od, bars, tushqon, lyu, ilon, yun, kuy, pichin, tagiru,

¹ Abu Reyhan Biruni Pamyatniki minuvshikh pokoleniy / Per. i prim. M.A. Sal'ye, Izbrannyye proizvedeniya, Tom I, Tashkent, "FAN", 1957.

tunguz). Xuddi shu asarida u oy nomlarini turkchada beradi: ulug‘-oy, kichik-oy, birinchi-oy, ikkinchi-oy, uchinchi-oy, to‘rtinchi-oy, beshinchi-oy, oltinchi-oy, yetinchi-oy, sakkizinchi-oy, to‘qqizinchi-oy, o‘ninch-oy.² Unda olimning tabiiy fanlarning turli sohalariga, jumladan, astronomiya, matematika, fizika, xaritashunoslik va boshqalar fanlarga oid kashfiyotlari o‘z ifodasini topgan.

Asosiy qism. Beruniyning ushbu asarni yozishga kirishishining o‘zi ham olimni zamonasida tarixni anglashdagi bilimini namoyon qiladi: “Adiblardan biri mendan (turli) xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, ya’ni oylar va yillar ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, (har xil) vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba’zisi amal qilib, ba’zisi amal qilmaydigan boshqa (marosimlar) haqida so‘radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o‘quvchi fahmlaydigan, (turli) kitoblarni axtarish va shu kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan (bir asar yozishga) da’vat etdi”³. Ushbu fikrdan ko‘rinib turganidek, Beruniy bu asarni alohida tarixiy, etnografik, xronologik va boshqa ko‘plab ko‘p tomonlama izlanishlar olib borish asosida bayon qilgan. Afsona va asotirlardan asl tarixni topib, uni haqqoniy qayd qilishga harakat qilgan.

“Biror o‘tib ketgan yilning avvalidan hisobga olinadigan ma’lum bir muddatga tarix deyiladi. O‘sha yilda turli alomatlar va dalillar bilan payg‘ambarlar dunyoga kelgan yoki qudratli, sha’ni ulug‘ bir podshoh bosh ko‘targan yoki xarob qiluvchi umumiyl to‘fon, zilzila va halokatli yer yutish, halok etuvchi vabo va qattiq qahatchilik natijasida biror millat halokatga uchragan yoki biror din boshqasi bilan almashgan va shunga o‘xshash muhim narsa yuz bergen bo‘lishi kerak”⁴.

Ushbu jumlalardan ko‘rinib turganidek, Beruniy tarix qadimgi xalqlar tomonidan qayd etilishi uchun hamma uchun ahamiyatga ega bo‘lgan voqeal yuz bergen bo‘lishi kerakligini qayd etib o‘tgan, ya’ni bu omil tarixni yozishga undovchi vosita bo‘lgan. Shuningdek, asarda tarix o‘tib ketgan yillar hisobi deyiladi, bu bilan tarixni yozish uchun yil hisobini, yillar ketma-ketligini ham bilish zarurligi, bu esa o‘sha xalqda yil hisobi yaratilgan yoki joriy etilgan bo‘lishini nazarda tutgan. Bu yerda podshohlar va payg‘ambarlar, biror muhim shaxs boshqaruvda bo‘lishi kerakligi qayd qilingan, bu esa o‘sha zamondanoq siyosiy tarix, davlatlar va

² Abu Reyhan Biruni. Izbrannyye proizvedeniya, I. Tashkent. AN UzbSSR. 1957, s.87-89.

³ Абӯ Райхон Беруний, Танланган асарлар, 1-жилд, Т., “Фан”, 1968, 15-бет.

⁴ Абӯ Райхон Беруний, Танланган асарлар. 1-жилд, Т., “Фан”, 1968, 50-бет.

tuzumlar tarixini yozishga kirishilganligini bildiradi. Xalqlar o‘z tarixini boshqaruvdagi shaxsnинг xatti-harakatlari, ma’lum tabiat hodisasi natijasi yoki xalqlarga ta’sir qilgan voqealikdan boshlab yoritadilar, bular orasidagi eng avvalgisi va muhimi sifatida Beruniy insoniyatning paydo bo‘lishini keltirib o‘tgan. Beruniy bashariyatning boshlanish nuqtasini belgilashda turli xalqlarda turlicha qarashlar mavjudligi va bu ular orasida ziddiyatlarning shakllanishiga olib kelganligi va bu kabi turfa xillik tarix uchu xos emasligini ta’kidlaydi. Bu muammoning yechimini aniqlashda insonlar ojizligi, sababi haqiqatlar afsonalar bilan qorishib ketganligi, ularni sodir bo‘lganidan ancha zamonlar o‘tib ketganligi qayd qilingan bo‘lishiga qaramasdan olim haqiqatni manbalar tahlili orqali aniqlash imkonini borligini ta’kidlaydi.

Asarda yahudiy, xristian, otashparastlar va boshqa xalqlarning tarixni boshlanishi to‘g‘risidagi fikrlarini tahlil qilib, xulosa qismida bularning barida yanglishish, chalkashlik borligini qayd qilib o‘tadi.

Asarda Beruniyning xalqlarning etnogenezi haqidagi fikrlari ham o‘ziga xos va bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Unda Beruniy xalqlarning tashqi ko‘rinishi, yuz tuzilishi, qiyofasi, tanasining rangi va boshqalar haqidagi ibtidoiy dunyoqarashlarni rad etib, uni dunyoviy, ilmiy tahlil qilishga harakat qilib, bularning bariga tabiat va iqlim omilini sabab qilib ko‘rsatadi: “(odamlar) tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, (adam) yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan haligi iboralar ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”⁵. Ushbu so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, olim lingvistik tahlilni ham olib borgan. U tillarning shakllanishi va tarqalish jarayonlari haqida o‘z dunyoqarashini bayon qilgan.

Beruniy xalqlar tarixini yoritishdagi yondashuvi ham o‘ziga xos: “Men ularning o‘zimgacha yetib kelgan gaplarini hikoya qilaman. Kuchim yetgancha buzilganlarini tuzatishga, yolg‘onlarni bekor qilishga, rostni aniqlashga urinaman”⁶.

⁵ Абу Райхон Беруний, Танланган асарлар, 1-жилд, Т., “Фан”, 1968, 16-17-бет.

⁶ Абу Райхон Беруний, Танланган асарлар, 1-жилд, Т., “Фан”, 1968, 21-бет.

Bundan shunday fikrga kelishimiz mumkinki, Beruniy ensklopedik olim sifatidagi o‘rnini, tarixga nisbatan ehtiyyotkorona yondoshganligi, uni har tomonlam tahlil qilib, mantiqiy xulosalar chiqarganligini guvohi bo‘lamiz.

Beruniyning tarixiy hodisa va voqealarni o‘rganish hamda umumlashtirishda qo‘llangan usul va yondashuvlari ham bizning davr uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash joiz. Alloma tarixni o‘rganishning ilmiy usulini qanday tushunganligini uning quyidagi so‘zlaridan anglash mumkin: “Asarni yozishga (kirishga) boshlab aytamanki, mendan so‘ralgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimi –qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o‘tmish avlodlar to‘g‘risidagi xabarlarni bilishdir, chunki bularning ko‘pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasm-rusum va qoidalaridan iboratdir. Aqliy (narsalardan) dalil keltirish, kuzatilgan (narsalarga) qiyos qilish yo‘li bilan u xabarlarni bilib bo‘lmaydi. Buni faqat “kitob ahli” va yerli din arboblariga (e’tiqod) egalariga erishish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So‘ngra buni ko‘pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko‘rishga imkon bermaydigan o‘zini tozalangandan keyin, ularning isbot uchun keltirilgan so‘z va e’tiqodlarni bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o‘tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi yo‘l va bunga dog‘ tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib, zo‘r mashaqqat cheksak ham, o‘shandan boshqa yo‘l bilan maqsadga erisha olmaymiz”⁷.

Xulosa. Buyuk allomaning har bitta asari o‘ziga xos ma’no - mazmunga ega va har biri turli fan tarmoqlarida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Sharq xalqlarida tarixiy dunyoqarashning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qilgan asarlar sirasiga Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari ham kiradi. Asarning e’tiborga molikligi shundaki, muallif tarixga xronologik ketma-ketlik tamoilini olib kirgan va xronologiya fanining asoschisi hisoblanadi. Shuningdek, tarixni haqqoniy va mantiqiy tahlil qilishga ham alohida e’tibor qaratgan. Bundan tashqari olim etnologiya, etnogenetika va lingvistikaga ham o‘z fikrlari bilan ulkan hissa qo‘shgan. Olimning bu kabi yutuqlari bilan birga kamchiliklarini ham aytib o‘tish lozim. Beruniy tarixiy ketma-ketlikda yillar va muhim hodisalarini yoritib bergen, lekin voqeani sabablarini yetarlicha yoritmagan. Lekin asar tarixni ba’zi sahifalarini

⁷ O‘sha asar.



sinoatini ochishda muhim ahamiyatga ega va o‘sha davr tarixini yorituvchi haqqoniy manba sifatida bugungi kun uchun beqiyos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Reyhan Biruni Pamyatniki minuvshikh pokoleniy / Per. i prim. M.A. Sal'ye, Izbrannyye proizvedeniya, Tom I, Tashkent, "FAN", 1957.
2. Abu Reyhan Biruni. Izbrannyye proizvedeniya, I. Tashkent. AN UzbSSR. 1957.
3. Абу Райхон Беруний, Танланган асарлар, 1-жилд, Т., “Фан”, 1968.
4. N. Jo‘rayev, “Tarix falsafasining nazariy asoslari”
5. Вклад Абу Райхана Беруни в развитие философии Ближнего, Среднего Востока и мировой науки, cyberleninka.ru, 2019.
6. ziyouz.com.

**Research Science and
Innovation House**